



O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

MIKROMOLIYA TASHKILOTLARI VA LOMBARDLARNING MOLIYAVIY HOLATI SHARHI

2025-yil yakuni bo'yicha

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning moliyaviy holati sharhi

Mazkur sharh 2025-yil yakuni bo'yicha mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning asosiy hamda moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari, xususan aktivlari, majburiyatlari, kapital va daromadlilikida yuzaga kelgan asosiy tendensiyalarni izohlaydi.

I. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar infratuzilmalari

2025-yil davomida mikromoliyaviy xizmatlar bozorida yangi ishtirokchi sifatida **32 ta** mikromoliya tashkiloti, ularning **234 ta** filiallari (*157 ta mikromoliya tashkiloti va 77 ta lombardlar*) tashkil etilib, umumiy soni **223 ta**, shundan mikromoliya tashkilotlari **132 ta** (*filiallar soni 393 ta*) va lombardlar **91 taga** (*filiallar soni 148 ta*) yetdi.



Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar ustavi tarkibida chet el kapitali mavjud bo'lgan mikromoliya tashkilotlari soni o'tgan yilning mos davriga nisbatan 5 taga ortib, 2025-yil yakuni bo'yicha **25 taga** (*mikromoliya tashkilotlari 17 ta va lombardlar 8 ta*) yetgan.

1-chizma

2-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar bosh ofislari soni

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning filiallari soni




Bunda, faoliyat yuritayotgan mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning eng ko'p qismi **Toshkent shahri** (77 ta mikromoliya tashkiloti va 46 ta lombard) va **Farg'ona viloyati** (20 ta mikromoliya tashkiloti va 5 ta lombard) hissasiga to'g'ri kelsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Qashqadaryo viloyatlarida **1 tadan** bosh ofislar joylashgan.

Dislokatsiya bo'yicha **Toshkent** shahrida lombardlarning **44 ta** filiallari va mikromoliya tashkilotlarining **32 ta** filiallari faoliyat yuritisa, **Xorazm** viloyatida mazkur ko'rsatkich **16 tani** tashkil etib, shundan mikromoliya tashkilotlarining filiallari **15 ta** va **1 ta** lombard filiali mavjud.

3-chizma

4-chizma




II. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar kreditlash amaliyotlari va ularning segmentatsiyasi

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida jami **31,8 trln so'm** miqdorida kreditlar ajratilib, kreditlash miqdori o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2 barobarga**, xususan mikromoliya tashkilotlarida **2 barobar** va lombardlarda **1,6 barobarga** oshgan. Bunda, kreditlashning **91 foizi** (28,9 trln so'mi) mikromoliya tashkilotlari va **9 foizi** (2,9 trln so'mi) lombardlar hissasiga to'g'ri kelgan.

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning **30,8 trln so'mi** yoki **97 foizi jismoniy shaxslar** va **1,1 trln so'mi** yoki **3 foizi yuridik shaxslar** hissasiga to'g'ri keladi.

5-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan ajratilgan kreditlar miqdori




Ajratilgan kreditlar segmentatsiyasida 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida ajratilgan **onlayn kreditlar** o'tgan yilning mos davriga nisbatan **21 foiz bandga** ortib, mikromoliya tashkilotlari tomonidan ajratilgan kreditlardagi ulushi **70 foizga** yetgan.

Onlayn kreditlash hajmining oshishi "Tezcoin" (15,2 trln so'm) "Shaffof-Moliya" (4,8 trln so'm), "Paylater" (146 mlrd so'm) va "Yangi Finance" (243 mlrd so'm) mikromoliya tashkilotlari tomonidan onlayn kreditlar ajratilishi bilan izohlanadi.

6-chizma

Ajratilgan onlayn va oflayn kreditlarning segmentatsiyasi




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar miqdorlari bo'yicha segmentatsiyasida 2025-yilning yanvar-dekabr oylarida ajratilgan kreditlarning **62 foizi 10 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlarni, **15 foizi 10-20 mln so'mgacha**, **14 foizi 20-50 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar va **50-100 mln so'mgacha** bo'lgan kreditlar ulushi **9 foizni** tashkil etgan.

2025-yilda 2024-yilning mos davriga nisbatan **10 mln so‘mgacha** bo‘lgan kreditlar ulushi **16 foiz bandga**, **10-20 mln so‘mgacha** bo‘lgan kreditlar ulushi **1 foiz bandga** oshgan bo‘lsa, **20-50 mln so‘mgacha** bo‘lgan kreditlar **11 foiz bandga** va **50-100 mln so‘m** miqdoridagi kreditlarda **6 foiz bandga** kamaygan.

7-chizma




Manba: Markaziy bank ma‘lumotlari

Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar miqdorlari segmentatsiyasida 200-300 mln so‘mgacha bo‘lgan kreditlar ulushi **22 foizni**, 50 mln so‘mgacha bo‘lgan kreditlar ulushi **21 foizni**, 100-200 mln so‘mgacha **20 foizni**, 300 mln so‘mdan yuqori bo‘lgan kreditlar ulushi **19 foizni** va 50-100 mln so‘mgacha bo‘lgan kreditlar ulushi **18 foizni** tashkil etgan.

2025-yilda 2024-yilga nisbatan **300 mln so‘mdan yuqori** bo‘lgan kreditlar ulushi **17 foiz bandga** va **200-300 mln so‘mgacha** bo‘lgan kreditlar ulushi **8 foiz bandga** oshgan bo‘lsa, **50-100 mln so‘mgacha** bo‘lgan kreditlar ulushi **12 foiz bandga**, **50 mln so‘mgacha** bo‘lgan kreditlar ulushi **8 foiz bandga** va **100-200 mln so‘mgacha** bo‘lgan kreditlar ulushi **5 foiz bandga** kamaygan.

Mikromoliya tashkilotlari tomonidan yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarning miqdorlar bo'yicha taqsimlanishi



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari


Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlarning oylik foiz stavkalari

Mikromoliya tashkilotlarida subyekt turlari bo'yicha 2025-yilning dekabr oyida **jismoniy shaxslarga** ajratilgan mikroqarzlarining foiz stavkalari **30-109,5 foiz** koridorida, **YATT** va **yuridik shaxslarga** ajratilgan mikrokreditlar **30-88 foiz** koridorida shakllangan bo'lib, yillik o'rtacha tortilgan foiz stavkalari mos ravishda **57,6** va **48,7 foizni** tashkil etgan.


2025-yilning dekabr oyida jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzlarning **0,3 foizi** (1,6 mlrd so'm) eng quyi chegara – yillik 29-40 foiz oralig'ida, **0,1 foizi** (300 mln so'm) eng yuqori chegara – yillik 100-109,5 foiz oralig'ida ajratilgan bo'lsa, yuridik va YATTlarga ajratilgan mikrokreditlarning **3,3 foizi** (1,3 mlrd so'm) eng quyi chegara – yillik 30-40 foiz oralig'ida, **37,4 foizi** (14,9 mlrd so'm) eng yuqori chegara – yillik 55-60 foiz oralig'ida ajratilgan.

Mikromoliya tashkilotlari tomonidan subyekt turlari bo'yicha yillik o'rtacha tortilgan foiz stavkasi

Jismoniy shaxslar




YATT va yuridik shaxslar



Lombardlar tomonidan 2025-yilning dekabr oyida jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzlarining foiz stavkalari 60-109,5 foiz koridorida shakllangan bo'lib, yillik o'rtacha tortilgan foiz stavkasi **97,1 foizni** tashkil etgan.

2025-yilning dekabr oyi davomida lombardlar tomonidan ajratilgan mikroqarzlarining **0,4 foizi** (1,3 mlrd so'm) eng quyi chegaraga – yillik 60-70 foiz oralig'ida va **48,8 foizi** (143,4 mlrd so'm) eng yuqori chegaraga – yillik 100-109,5 foiz oralig'iga to'g'ri keladi.

Lombardlar tomonidan ajratilgan mikroqarzlarining yillik o'rtacha tortilgan foiz stavkalari




III. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

3.1. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning aktivlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,5 barobarga** ortib, 2026-yil 1-yanvar holatiga **12,5 trln** so'mni tashkil etgan. Bunda, **mikromoliya tashkilotlarining** aktivlari o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,9 trln so'mga (50 foiz) o'sib, **11,8 trln** so'mga yetgan bo'lsa, **lombardlar** aktivlari 246 mlrd so'mga (49 foiz) oshib, **743 mlrd** so'mga yetgan.

11-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar aktivlari miqdori




Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar jami aktivlarining **91 foizi** (11,4 trln so'mi) kredit qo'yilmalari hissasiga to'g'ri kelib, mazkur kredit qo'yilmalar 2026-yil 1-yanvar holatiga o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,4 barobarga** o'sgan.

Natijada, 2025-yil yakunida mikromoliya tashkilotlari va lombardlar kreditlarining barcha kredit tashkilotlar umumiy kredit qoldig'idagi ulushi **1,9 foizga** yetdi.

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar kredit qo'yilmalarining jami kreditlardagi ulushi dinamikasi




Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan **jismoniy shaxslarga** ajratilgan kreditlar qoldig'i o'tgan bir yilda 1,4 barobarga oshib, **10,5 trln so'mni**, shuningdek tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar qoldig'i 1,9 barobarga oshib, **921 mlrd so'mni** tashkil etgan.

Bunda, tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan **mikrokreditlar** qoldig'i 1,8 barobarga ko'payib, **694 mlrd so'mga**, faktoring xizmatlari hajmi 2,4 barobarga oshib, **222 mlrd so'mga** yetgan bo'lsa, lizing xizmatlari hajmi **37 foizga** kamayib, **6 mlrd so'mni** tashkil etgan.


Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar tomonidan ajratilgan kredit turlari qoldig'i

2025 yil 1-yanvar holatiga
(mlrd so'm)



■ mikroqarz ■ mikro kredit
■ faktoring ■ lizing
■ iste'mol kreditlari

2026 yil 1-yanvar holatiga
(mlrd so'm)



■ mikroqarz ■ mikro kredit
■ faktoring ■ lizing
■ iste'mol kreditlari

Mikromoliya tashkilotlarida muammoli kreditlar qoldig'i (NPL) joriy yilning 1 yanvar holatiga **263 mlrd so'm** yoki **2,4 foizni** tashkil etib, o'tgan yilning mos davri darajasida saqlangan.


Bunda, o'tgan yilning mos davriga nisbatan "shubhali" kreditlar 1,4 barobarga (68 mlrd so'mga) va "umidsiz" kreditlar 1,5 barobarga (11 mlrd so'mga) oshgan. Muammoli kreditlarning (NPL) 227 mlrd so'mi (86 foiz) "shubhali", 36 mlrd so'mi (14 foiz) "umidsiz" kreditlar hissasiga to'g'ri keladi.

Mazkur muammoli kreditlarning 56 foizi "**Tezcoin**" (78 mlrd so'm) va "**Shaffof-moliya**" (71 mlrd so'm) mikromoliya tashkiloti hissasiga to'g'ri kelgan.

Muammoli kreditlarni qoplash koeffitsiyenti (NPL coverage ratio) 2025-yil boshiga nisbatan **8 foiz bandga** oshib, 2026-yil 1-yanvar holatiga **65 foizni** tashkil etgan.

14-chizma

Muammoli kreditlar va ularni qoplash koeffitsiyenti




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

3.2. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar majburiyatlari

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning jami majburiyatlari 2025-yil yakunida o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,5 barobarga** (3 trln so'mga) oshib, **8,5 trln** so'mni tashkil etgan. Xususan, **mikromoliya tashkilotlarining** majburiyatlari **1,5 barobarga** (2,9 trln so'mga) oshib, **8,3 trln** so'mni, **lombardlarda** esa **21 foizga** (25 mlrd so'mga) ko'payib, **146 mlrd** so'mni tashkil etgan.


15-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar
majburiyatlari dinamikasi

Mikromoliya tashkilotlari jami majburiyatlarining **29 foizi** (2,4 trln so'm) mahalliy kompaniyalardan, **28 foizi** (2,3 trln so'm) tijorat banklari, **15 foizi** (1,2 trln so'm) ta'sischilar, **6 foizi** (498 mlrd so'm) xalqaro moliya institutlari, **4,4 foizi** (362 mlrd so'm) obligatsiyalarni joylashtirish va **18 foizi** (1,5 trln so'm) boshqa majburiyatlar hisobidan shakllangan.

Bunda, majburiyatlar tarkibida obligatsiyalarni joylashtirishdan kelgan mablag'lar **3,3 barobarga** (252,9 mlrd so'm), mahalliy kompaniyalardan jalb etilgan mablag'lar **3,2 barobarga** (1679,6 mlrd so'm), ta'sischilar mablag'lari **1,5 barobarga** (393,7 mlrd so'm), xalqaro moliya institutlari mablag'lari **1,4 barobarga** (129,9 mlrd so'm) o'sgan bo'lsa, tijorat banklaridan jalb etilgan resurslari **9,1 foizga** (232,2 mlrd so'm) qisqargan.

16-chizma




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Lombardlarning jami majburiyatlari 2026-yil 1-yanvar holatiga o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,2 barobarga** oshgan holda **146 mlrd so'mni** tashkil etib, uning **62 foizi** (90 mlrd so'm) ta'sischilar, **15 foizi** (22 mlrd so'm) tijorat banklaridan jalb etilgan mablag'lar va **23 foizi** (34 mlrd so'm) boshqa majburiyatlar hisobidan shakllangan.

Bunda, lombardlar jami majburiyatlari tarkibida ta'sischi mablag'lari **1,6 barobarga** (34 mlrd so'm) va tijorat banklari resurslari **2 foizga** (1 mlrd so'm) oshgan bo'lsa, boshqa majburiyatlari **21 foizga** (9 mlrd so'm) kamaygan.

17-chizma




Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

3.3. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar kapitali

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar jami kapitali o'tgan yilning mos davriga nisbatan **1,4 barobarga** (1,2 trln so'm) ko'payib, 2026-yil 1-yanvar holatiga **4,1 trln** so'mga yetgan. Bunda, **mikromoliya tashkilotlarining** jami kapitali **1,4 barobarga** (997 mlrd so'm) oshib, **3,5 trln** so'mni va **lombardlarda 1,6 barobarga** (220 mlrd so'm) o'sib, **597 mlrd** so'mni tashkil etgan.

Bunda, mikromoliya tashkilotlarining jami kapitali o'sishida ustav kapitalining **638 mlrd so'm** (51 %), joriy yil foydasi **84 mlrd so'm** (10 %), zaxira kapitali **32 mlrd so'm** (32 %), taqsimlanmagan foyda **232 mlrd so'mga** (80 %) o'sishi, lombardlarda esa ustav kapitalining **92,4 mlrd so'm** (89 %), joriy yil foydasi **71 mlrd so'm** (42 foiz), taqsimlanmagan foyda **53 mlrd so'm** (58 foiz) hamda zaxira kapitalining **1,8 mlrd so'mga** (16 foiz) o'sishi hisobiga yuzaga kelgan.


18-chizma

Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar jami kapitali
dinamikasi


Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Shuningdek, 2025-yilning yakuni bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan xorij kapitali ishtirokidagi mikromoliya tashkilotlarining ustav kapitali **1,5 barobarga** (107 mlrd so'm) va lombardlarda esa **5,4 barobarga** (79 mlrd so'm) oshgan.

19-chizma

Ustav kapitalida xorij kapitali mavjud
mikromoliya tashkilotlari

20-chizma

Ustav kapitalida xorij kapitali mavjud
lombardlar

3.3.1. Mikromoliya tashkilotlari va lombardlar rentabellik ko'rsatkichlari


2025-yil yakunlari bo'yicha mikromoliya tashkilotlari va lombardlarning jami daromadlari **5,1 trln so'mni**, jami xarajatlari **3,9 trln so'mni** tashkil etib, jami **1,2 trln so'm** miqdorida sof foyda olingan.

Bunda, **mikromoliya tashkilotlarida** jami daromadlar **4,6 trln so'mni**, jami xarajatlar **3,7 trln so'mni** va sof foyda **917 mlrd so'mni** tashkil etgan bo'lsa, **lombardlarda** esa jami daromadlar **508 mlrd so'mni**, xarajatlar **266 mlrd so'mni** tashkil etib, **242 mlrd so'm** miqdorida sof foyda olingan.

3.3.2. Aktivlar va kapital rentabelligi

Mikromoliya tashkilotlarida kapital rentabellik ko'rsatkichi (ROE) 2024-yil yakuniga nisbatan **2,3 foiz bandga** kamayib, tahlil sanasida **38,2 foizni** tashkil etgan bo'lsa, **aktivlar rentabellik ko'rsatkichi (ROA)** ushbu davrda **0,9 foiz bandga** kamayib, 2025-yil yakuni bo'yicha **18,5 foizni** tashkil etgan.

21-chizma



Shu bilan birga, lombardlarda **aktivlar rentabellik ko'rsatkichi (ROA)** 2025-yil yakunida 2024-yilning mos davriga nisbatan **0,2 foiz bandga** kamayib, **55,4 foizni** tashkil etgan bo'lsa, **kapital rentabellik ko'rsatkichi (ROE)** o'tgan yilning mos davriga nisbatan **0,3 foiz bandga** oshib, hisobot sanasida **52,3 foizga** yetgan.

22-chizma

Lombardlarning rentabellik ko'rsatkichlari dynamikasi

